

Mamatova Zarena Abdujalilovna
Samarqand davlat pedagogika instituti doktoranti
mamatovazarena@gmail.com

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA KASBIY-PEDAGOGIK QADRIYATLAR VA QADRIYATLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy-pedagogik qadriyatlar va qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning pedagogik usullari yoritilgan. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga ongli munosabatini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash hamda aksiologik yondashuv asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'limiy qadriyatlar, aksiologik yondashuv, qadriyatlarni shakllantirish, portfolio, ta'limiy dasturlar.

FORMATION OF PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL VALUES AND VALUE ATTITUDES AMONG STUDENTS BASED ON AN AXIOLOGICAL APPROACH

Abstract. This article discusses pedagogical methods for the formation of professional and pedagogical values and value-based relationships in primary education students. The study analyzes the issues of developing a conscious attitude of future teachers to professional activity, integrating national and universal values into the educational process, and improving pedagogical competencies based on an axiological approach.

Keywords: education system, educational values, axiological approach, value formation, portfolio, educational programs.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И ЦЕННОСТНОГО ОТНОШЕНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются педагогические методы формирования профессионально-педагогических ценностей и ценностных отношений у учащихся начальной школы. В исследовании анализируются вопросы формирования осознанного отношения будущих учителей к профессиональной деятельности, интеграции национальных и универсальных ценностей в образовательный процесс и совершенствования педагогических компетенций на основе аксиологического подхода.

Ключевые слова: система образования, образовательные ценности, аксиологический подход, формирование ценностей, портфолио, образовательные программы.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari, zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan yangilanishlar pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'limiy qadriyatlarning o'rni beqiyos. Ta'limiy qadriyatlar-bu shaxsda professional kompetensiyalarni shakllantiruvchi, ularning jamiyat oldidagi ma'naviy, axloqiy va kasbiy mas'uliyatini anglatadigan tamoyillardir. Bunday qadriyatlar asosida shakllangan bo'lajak pedagoglar nafaqat bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi, balki o'z kasbi, o'qituvchilar va jamiyatga nisbatan yuksak mas'uliyat va insonparvar ruh bilan yondashadi. Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, shaxsiyatni shakllantiruvchi, jamiyatning axloqiy mezonlarini bola qalbiga singdiruvchi shaxsdir. Shu sababli, pedagogik tayyorgarlik jarayonida o'qituvchining shaxsiy

136 *fazilatlarini, qadriyatlariga munosabati, axloqiy qarashlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.*

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, qadriyatlar tizimini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy va pedagogik-psixologik asoslari N. Shodiyev, I. Isayev, Sh. Mardonov, O. Musurmonova, S. Nishonova, V. Slastenin, B. Xodjayev, N. Egamberdiyeva kabi olimlarning izlanishlarida tadqiq etilgan. Ta'limda aksiologik yondashuv-bu shaxsni qadriyatlarga asoslangan holda rivojlantirishga qaratilgan nazariy-metodologik yo'nalish bo'lib, o'qituvchilik kasbining eng muhim jihatlari qamrab oladi. Boshlang'ich ta'limda qadriyatli yondashuvning o'rni juda muhim, chunki boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu davr bolaning bilimga bo'lgan qiziqishi, atrof-muhitga munosabati, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish qobiliyati, shuningdek, axloqiy qadriyatlari shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, jahonda bu mavzuda keng miqyosda ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2015-yilda boshlangan OECD ning "Ta'lim 2030: Ta'lim kelajagi uchun tasavvur" (OECD, 2018) dasturida talabalar noaniq kelajakni muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur bo'lgan transformatsion kompetensiyalar: yangi qiymat yaratish, tenglik, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va keskinliklarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish ta'limiy qadriyat sirasiga kiritib, dastur ushbu qadriyatlarni shakllantirishga bag'ishlangan.

Natijalar va muhokama.

Pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning turli usullari mavjud bo'lib, ular talabalarning kasbiy faoliyatga axloqiy mas'uliyat bilan yondashuvni, doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga intilishni hamda ta'lim sohasidagi yangiliklarga moslashuvchanlikni namoyon etishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu jarayon quyidagi ayrim usullarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagogik faoliyatga oid portfolioni shakllantirish borish: Talabalarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik portfolioni yaratish muhim ahamiyatga ega. Portfolio- bu talabaning o'quv jarayonidagi individual yutuqlari, kasbiy o'sish yo'li va o'z ustida ishlash faoliyatining tizimli tarzda aks ettirilgan hujjatlar to'plami. U talabaning o'zini baholashi, kasbiy refleksiyasi va shaxsiy rivojlanishini tahlil etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik portfolio quyidagicha tuzilmaga ega bo'lishi lozim:

- O'quv jarayoni va amaliyot davomida to'plangan natijalar: Talabaning o'zlashtirgan nazariy bilimlari va o'quv-amaliyot jarayonidagi tajribalari.
- Refleksiv ko'nikmalar: Dars tahlillari, o'z faoliyati yuzasidan yozilgan fikr-mulohazalar, xatoliklar va yutuqlar bo'yicha o'z-o'zini tahlil qilish.
- Innovatsion yondashuvlar: Talaba tomonidan ishlab chiqilgan yoki qo'llangan yangicha metodlar, ta'lim texnologiyalari va ularning samaradorligi haqidagi ma'lumotlar.
- Ilmiy-tadqiqot ishlari: Kurs ishlari, maqolalar, ilmiy loyihalar va tadqiqot natijalari.
- Ijtimoiy faoliyat: Ta'lim muassasasi yoki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy, tarbiyaviy loyihalardagi ishtiroki.
- Baholash va tavsiyanomalar: O'qituvchilar yoki amaliyot rahbarlari tomonidan berilgan fikrlar, baholar va tavsiyalar.

Pedagogik portfolioni shakllantirish talabaning aksiologik yondashuv asosida o'zini kasbiy shaxs sifatida anglashiga, axloqiy javobgarlikni his qilishiga va pedagogik qadriyatlarni chuqurroq singdirishiga imkon yaratadi. Bu jarayon shuningdek, talabaning mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini tahlil qilish, o'z ustida ishlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Interfaol metodlarni qo'llash: Boshlang'ich ta'lim talabalarida kasbiy-pedagogik qadriyatlar va qadriyatli munosabatni shakllantirishda barcha interfaol metodlar bir xil darajada samarali emas. Ta'limda yaxshi natija beradigan metodlar quyidagilar:

Interfaol metodlar	Maqsad	Kutiladigan natija
Keys-stadi (Case study)	Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish	Mas'uliyat, adolat, pedagogik odob
Rolli o'yinlar	O'qituvchi va o'quvchi munosabatlarini modellashtirish	Insonparvarlik, empatiya, muloqot madaniyati
Munozara	Muammoli masalalar bo'yicha fikr	Hurmat, bag'rikenglik,

Interfaol metodlar	Maqsad	Kutiladigan natija
(Debate)	almashish	mustaqil fikrlash
Aqliy hujum (Brainstorming)	Muammolarga ijodiy yechim topish	Hamkorlik, ijodkorlik
Loyiha metodi	Mustaqil va jamoaviy faoliyatni tashkil etish	Kasbiy burch, hamkorlik, tashabbuskorlik
Refleksiya	O'z faoliyatini baholash	O'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tahlil qilish

Tajriba-sinov davomida Keys-stadi (Case Study) eng samarali usul ekanligi aniqlandi, sababi-talabalarni haqiqiy pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirdi, qadriyatlar asosida to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatdi. Kasbiy-pedagogik qadriyatlarni amaliyotda namoyon etishga imkon berdi, refleksiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirdi. Misol uchun, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari bilan quyidagi 2 muammoli vaziyat tahlil qilindi: "Boshlang'ich sinf o'quvchisi uy vazifasini bajarmay kelgan. O'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?" hamda "Boshlang'ich sinfda matematika fanidan nazorat ishi o'tkazildi. O'qituvchi ishlarga baho qo'yish jarayonida sinfdagi faol o'quvchilardan biri Akobirning ishida bir nechta xatolarni ko'rdi. Shu bilan birga, kamroq faol bo'lgan boshqa o'quvchi Farruxning ishi deyarli xatosiz bajarilgan edi. O'qituvchi Akobirning avvalgi yaxshi natijalarini hisobga olib, unga yuqori baho qo'yish yoki barcha o'quvchilarni bir xil mezon asosida baholash o'rtasida ikkilanib qoldi." Talabalar turli yechimlarni taklif qildilar va pedagogik vaziyatlarni qadriyatlar nuqtayi nazardan tahlil qilishni o'rgandilar, kasbiy qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlandi hamda pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat shakllandi.

Xulosa va takliflar. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini ta'limiy qadriyatlar asosida takomillashtirish masalasi ustida tadqiqotlar olib borilishi kerak, ta'limiy qadriyat asosida tayyorlangan o'qiyuvchida pedagogik mas'uliyat ortadi, kasbiy identifikatsiya mustahkamlanadi, ya'ni kasbga bo'lgan munosabat o'zgaradi, ichki e'tiqod shakllanadi. Bundan tashqari, talabaning ijtimoiy mas'uliyati oshadi, jamiyatda esa tenglik, halollik, adolat kabi insoniy fazilatlariga asoslangan ta'lim rivojlanadi. Aksiologik yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchining kasbiy mahorati, metodik kompetentligi va innovatsion faoliyatga tayyorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuv asoslarini chuqur o'rgatish, zamonaviy texnologiyalar va qadriyatlar integratsiyasini amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli ishlarni kuchaytirish zarur. Shuningdek, ta'lim muassasalarida qadriyatlarga yo'naltirilgan pedagogik muhitni yaratish, metodik ta'minotni takomillashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirish orqali mazkur yondashuvning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N.A. va b. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
2. Mardonov Sh. Pedagogik aksiologiya, "Fan va texnologiyalar", Toshkent-2003
3. Caitlin Senior, Pasi Sahlberg "The evolution of the OECD's position on equity in global education" //International Journal of Educational Development 114 (2025) 103241
4. Boboxujayev J.U. "Talabalarda deontologik yondashuvlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish usullari" //Inter Education & Global study jurnali-2025. 3-son
5. Mardonov SH. Yangi ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, "Fan", T-2006.
6. Boltayev A.Y. "Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish" . 2025
7. Choriyeva S. Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish tizimi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4 SPECIAL. – C. 1177-1181.
8. G'aybullayev B.N. Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI // 2026-yil, may, 5(2)-son